

наиболее известны библиотека численных и статистических методов IMSL, конкурент по численным методам NAG, а также интерактивная среда со встроенным языком программирования. В частности, к статистическим методам проявляется повышенный интерес как к одному из важнейших аналитических инструментариев в сфере поддержки процессов принятия решений [3,4].

Использованная литература:

1. Lupton D. Digital Sociology. L., N. Y.: Routledge, 2015. – 230 p.
2. Мосягин А.Б. Использование методологии data mining при решении задач обработки социальных данных // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2015. No 2 (126). – С. 143–145.
3. Наследов А.Д. SPSS: Компьютерный анализ данных в психологии и социальных науках / А.Д. Наследов. – СПб.: Питер, 2005. – 416 с.
4. Наследов А.Д. Математические методы в психологических исследованиях. Анализ и интерпретация данных / А.Д. Наследов. – СПб: Речь, 2012. – 392 с.

HOZIRGI IQTISODIY TARAQQIYOT DAVRIDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Janizoqov Ilyos

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

ijanizakov@inbox.ru

Annotatsiya: Maqolada geografiya fanini vujudaga kelish tarixi va maqsad va vazifalarini inobatga olib, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, qadimgi yoki antik davr bosqichi, o'rta asrlar bosqichi, buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi, ilmiy geografik ishlar bosqichi.

Kirish. Geografiya eng qadimgi va hamisha navqiron fanlardan biri. Geografik kashfiyotlar, g'oya va bilimlarning rivojlanish xususiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin.

Qadimgi yoki antik davr bosqichi. Ibtidoiy odamlarning o'zi yashab turgan joyni o'rganish, yashash uchun qulay, tabiiy resurslarga boy joylarni topish va tasvirlashga bo'lgan intilishlari asnosida dastlabki Geografik bilimlar to'planib borgan. Er.avv. 2-ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'izi orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'ylab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo'lgan.

O'rta asrlar bosqichi. Bu davrda geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniyning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. U yasagan globus esa Yerning sharsimonligini isbotlash va tushuntirishda, Shimoliy yarimshar tabiatini o'rganishda tengi yo'q manba

bo'lgan. U yunon va rim olimlaridan farq qilib olamning geliotsentrik tuzilishi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo'shgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi. XV asrning 2-yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Natijada Buyuk geografik kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo'nalishda olib borildi: 1) janubiy – Afrika bo'ylab; 2) g'arbiy – Atlantika okeani orqali; 3) shimoliy – Yevrosiyaning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab.

Ilmiy geografik ishlar bosqichi. XVII asrga kelib fanlarning rivojlanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi O'zbekistonimiz bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan murakkab sharoitda, o'zining jahon hamjamiyati oldida munosib o'rniga ega bo'lib, xorijiy investorlarning ishonchiga sazovor bo'lib bormoqda. Buning muhim sabablari ishchi kuchining yetarli darajada ekanligi, iqtisodiy geografik joylashuv hisoblanadi.

Geografiya fani turli mamlakat va rayonlarda ichida kuchlarining joylashish xususiyatlari hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sistemalarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Uning asosiy vazifalari ishlab chiqarish va aholi hayoti bilan bog'liq soxalarning joylanishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlarni taxlil qilish, vujudga kelgan iqtisodiy geografik vaziyat — ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va strukturasini baholash, ularni bashorat qilish va boshqarishdan iborat. Shuningdek, I. va i.g. ishlab chiqarishni joylashtirish bilan aloqador tabiatdan foydalanish va geoekologik muammolar, davlatning regional siyosati, xo'jalik strukturasini tartibga solib borishdek muhim vazifalarni o'rganadi. Shu sababdan Yangi O'zbekistonimizni yanada rivojlanishi va jahon hamjamiyati oldida munosib o'rniga ega bo'lishi uchun malakali bo'lajak mutaxassislarni yetishtirib chiqarish ta'lim muassasalarining oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Demak, geografiya fanini vujudaga kelish tarixi va maqsad va vazifalarini inobatga olib, iqtisodiyotni rivojlantirishda o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lgan geografiya fanini o'qitish metodikasini ishlab chiqish pedagogik masalalardan hisoblanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soliyev A. S, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari, T., 1995;
2. Soliyev A. S, Qarshiboyeva L. Q., Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari, T., 1999;
3. Саушкин Ю. Г., Введение в экономическую географию, 2 изд. М., 1970;
4. Soliyev A. S, Mahamadaliyev R., Iqtisodiy geografiya asoslari, T., 1996.
5. Abdutolib P., Marg'uba L. AMALIY MATEMATIKA TALABALARINI ISHLAB CHIQRISH KASBIY FAOLIYAT SOHASIGA QIZIQTIRISHDA AXBOROT-TEXNIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING RO'LI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 510-513.

2. Abdutolib P. TALABALARDA AXBOROT-TEKNIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGAI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 53-56.

3. Абдутолиб.. ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ПРИМЕРЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКИ // CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2023. – Т. 4. – No 05. – С. 28-32.

4. Абдутолиб. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ В БАКАЛАВРИАТЕ // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – No 05. – С. 26-34.

MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLARIMIZDAN YOSHLAR TARBIYASIDA FOYDALANISHNING TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Janizoqov Ilyos

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

ijanizakov@inbox.ru

Annotatsiya: Hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida yilda emas, balki har bir hafta va oyda ko'plab yangiliklar, o'zgarishlar bo'lib turibdi. Ushbu maqolada milliy qadriyat, milliy urf-odatlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, milliy urf-odat, milliy madaniyat, ma'naviy dunyoqarash, ong va psixika, ijtimoiy ong, dunyoqarash, millat va elat.

Kirish. Hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida yilda emas, balki har bir hafta va oyda ko'plab yangiliklar, o'zgarishlar bo'lib turibdi.

Mustaqillik sharoitida milliy madaniyatimizni rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish sohasida erishgan ulkan yutuqlarimizdan yana biri - o'zbek tiliga davlat maqomi berilganligidir. Bu voqea hayotimizda, ongimizda katta burilish yasadi.

Istiqlol tufayli ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sib, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga poydevor yaratmoqda. Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'iy nazar, eng avvalo o'zining milliy ongi va psixologiyasida namoyon bo'ladi.

Milliy ong - ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongining asosiy shaklidir. Ma'lumki, ijtimoiy ong jamiyatning, ishlab chiqarish munosabatlarning o'zida aks ettiruvchi, uning ma'naviy hayot darajasini ifodalovchi xis-tuyg'u, g'oya va